



The role of a person's right to health in the system of social rights

Khulkar SAFAROVA¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024

Received in revised form

15 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

15 March 2024

Keywords:

Individual's right to health,
healthy lifestyle,
health care,
right to medical care,
emergency medical care,
health care organization,
patient,
health care system,
the right to health.

ABSTRACT

The article analyzes the role of a person's right to health in the system of social rights based on universal international legal documents and national legal documents. Conclusions and recommendations have been put forward based on the analysis of issues related to ensuring the right of a person to health.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp74-83>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ijtimoiy huquqlar tizimida shaxsning sog'liqqa bo'lgan huquqining tutgan o'rni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

shaxsning sog'liqqa bo'lgan huquqi,
sog'lom turmush tarzi,
sog'liqni saqlash,
tibbiy yordam olish huquqi,
kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam,
sog'liqni saqlash tashkiloti,
bemor,
sog'liqni saqlash tizimi,
sog'liqqa bo'lgan huquq.

Maqolada shaxsning sog'liqqa bo'lgan huquqi ijtimoiy huquqlari tizimida tutgan o'rni universal xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonun hujjatlari asosida tahlil etilgan. Shaxsning sog'liqqa bo'lgan huquqini ta'minlash borasidagi mummolar tahlili asosida xulosa va tavsiyalar ilgari surilgan.

¹ Senior teacher, Tashkent State University of Law.

Роль права человека на здоровье в системе социальных прав

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

право личности на здоровье, здоровый образ жизни, охрана здоровья, право на медицинскую помощь, неотложная медицинская помощь, организация здравоохранения, пациент, система здравоохранения, право на здоровье.

В статье анализируется роль права человека на здоровье в системе социальных прав на основе универсальных международно-правовых документов и национальных правовых документов. На основе анализа вопросов, связанных с обеспечением права человека на здоровье, выдвинуты выводы и рекомендации.

Shaxsning sog'liqqa bo'lgan huquqini ta'minlash eng muhim hisoblangan shaxsning yashash huquqi bilan bevosita bog'liqdir. Dunyoda yuz berayotgan jarayonlar sog'liqni saqlashni ta'minlash milliy havfsizlik darajasiga ko'tarilganini qayd etish mumkin.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST)ning Ustaviga binoan "Sog'liqni Saqlash – bu nafaqat kasalliklar va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlikning holati. Sog'liqni Saqlashning eng yuqori darajasidan foydalanish har bir insonning irqi, dini, siyosiy qarashlari, iqtisodiy yoki ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, asosiy huquqlaridan biridir. Barcha xalqlarning salomatligi tinchlik va xavfsizlikka erishishning asosiy omili bo'lib, alohida shaxslar va davlatlarning to'liq hamkorligiga bog'liqdir" [1].

Umuman olganda, JSST Ustavida berilgan sog'liqqa bo'lgan huquqning ta'rifi Sog'liqni Saqlash huquqining xalqaro maydonga chiqichiga xizmat qildi.

Inson huquqlari umumjaxon deklarasiyada belgilangan "inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash" huquqi "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro paktning 12-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra:

"1. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kichining jismoniy va ruhiy salomatlik jihatdan oliy darajaga etishi huquqini e'tirof etadi.

2. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ko'richi kerak bulgan choralar quyidagi ishlar uchun zarur tadbirlarni o'z ichiga oladi:

a) o'lik go'daklar tug'ilichini va bolalar o'limini qisqartirish hamda bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash;

b) tashqi muhitning hamma jihatlarini va sanoatda mehnat gigienasini yaxshilash;

v) yuqumli, endemik, kasbiy va boshqa kasalliklarni oldini olish, davolash hamda ularga qarshi kurashish;

g) kasal bo'lgan hollarda hammaga tibbiy yordam ko'rsatish va tibbiy parvarishni ta'minlaydigan sharoit yaratish" [2].

Shunday qilib, Iqtisodiy, "Ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro paktda insonning sog'liqqa bo'lgan huquqi alohida maqomdagi ajralmas huquq sifatida tan olingan bo'lib, kelgusi mintaqaviy va xalqaro hujjatlar uchun asos vazifasini bajardi va

O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 126-I-sonli "1966 yil 16 dekabrda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shilish haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan.

"Sog'lig'ini muhofaza qilishga bo'lgan huquq" tushunchasi o'zining quyidagi ustuvorliklari evaziga hozirgi kunda dunyo qonunchiligida kengroq qo'llanilmoqda: 1) atama xalqaro hujjatlar va bitimlar stilistikasi nuqtai nazaridan shakllantirilgan; 2) xalqaro hamjamiyat tomonidan keng miqyosda qo'llanilgan; 3) u faqatgina tibbiy xizmatdan foydalanishni emas, balki bir qator Sog'liqni ularsiz himoya qilib bo'lmaydigan shartlarni ta'minlashni ham o'zida qamrab oladi. Shunday shartlardan biri esa yaroqli ichimlik suviga, sog'lom atrof-muhitga ega bo'lishdan iborat [3].

Sifatli tibbiy yordam tushunchasi o'z ichiga tibbiy yordamning o'z vaqtida ko'rsatilishini, tibbiy yordam ko'rsatishda profilaktika, diagnostika, davolash va rehabilitasiya usullarini to'g'ri tanlash, davolash jarayonida rejalashtirilgan natijaga erishish darajasiga qanchalik erishilganlikni aks ettiruvchi xususiyalar majmuini anglatadi.

Aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi prinsipini amalga oshirish bo'yicha vazirlar kengashining "Tibbiy yordam ko'rsatishdan umumiy foydalanish to'g'risida"gi R(86) 5-son tavsiyalariga ko'ra, davlatlar tomonidan nafaqat barcha shaxslarga tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatini yaratish, balki tibbiy yordam olishning moliyaviy jihatdan barcha uchun maqbul shaklda tashkil qilish zarur [4].

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunga ko'ra davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat'i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar (13-modda). Shu bilan ushbu qonunga ko'ra fuqarolar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi omillar haqida ma'lumot olish (15-modda), tibbiy ijtimoiy yordam olish (16-modda), tibbiy ko'rikdan o'tish (17-modda), oilaviy shifokor tanlash (18-modda), harbiy-tibbiy komissiyaning xulosasi asosida harbiy xizmatdan muddatidan ilgari bo'shatilish huquqiga (20-modda) va sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan sharoitda tekshiruvdan o'tish, davolanish va parvarish qilinish, tibbiy yordam so'rab murojaat qilganligi, sog'lig'ining holati, qo'yilgan tashxis to'g'risidagi ma'lumotlar hamda uni tekshirish va davolash chog'ida olingan boshqa ma'lumotlar sir saqlanishi, tibbiy aralashuvga o'z ixtiyori bilan rozilik berish yoki uni rad etish; sug'urta turlaridan foydalanish (20-modda) kabi huquqlarga ega. Ushbu qonunga ko'ra huquqlari buzilgan taqdirda bemor yoki uning qonuniy vakili bevosita davolash-profilaktika muassasasining rahbari yoki boshqa mansabdor shaxsiga, yuqori boshqaruv organiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin.

Konstitusiyada belgilangandek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning qonunda belgilangan hamda tez va shoshilinch tibbiy yordamni ham o'z ichiga oladigan kafolatlangan hajmini bepul olishga haqlidir. Xususan, yuqumli kasalliklar tarqalganda aholini sog'lig'ini muhofaza qilish, tez va shoshilinch tibbiy xizmat faoliyatini tashkil qilishning konstitusiyaviy asoslarini mustahkamlash fuqarolarning malakali tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyatining ajralmas qismidir.

Aholining tez tibbiy yordam xizmatiga murojaatlari yil sayin oshib borayotganligini statistik ma'lumotlar ham ko'rsatadi. Masalan, 2016-yilda chaqiriqlar soni 7,2 millionni tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilda – 8,7 million. 2018-yilda esa 9,8 millionga etgan bo'lsa, 2019-yilda 10,2 mln, 2020-yilni 5 oyining o'zida 7,5 mln. 2022-yilning yanvar – iyun oylarida 6 mln 245 ming 280 tani tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi RQ-3494-son qaroriga muvofiq shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam mulkiy shakli va boshqaruvidan qat'i nazar barcha tibbiyot muassasalarida aholiga bepul ko'rsatiladi, hayot uchun xavf tug'diruvchi holatlarda tibbiyot muassasalariga shoshilinch tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan shaxslarga malakali tibbiy yordam ko'rsatishni rad etish ta'qiqlanadi.


Bugungi kunda xususiy shifoxonalarda ham ushbu tibbiy xizmatni bepul ko'rsatilishi belgilangan.

Shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam tushunchalari Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrdagi 832-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ro'yxatini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomda belgilab qo'yilgan.

Ushbu hujjatga ko'ra, **kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam** – bemor hayotiga xavf soladigan aniq belgilari bo'lmagan to'satdan kuchli kasalliklarda, holatlarda va surunkali kasalliklar kuchayganda ko'rsatiladigan tibbiy yordam turi; **shoshilinch tibbiy yordam** – kasalliklarga chalinganda, baxtsiz hodisalar yuz berganda, jarohat olganda, zaharlanganda va tez tibbiy aralashuv har qanday sharoitda ko'rsatilichini talab qiladigan boshqa holatlarda ko'rsatiladigan tibbiy yordam turidir. Bizning ijtimoiy davlatda bugungi kunda bunday tibbiy yordam turlari barchaga, xususan fuqaroligidan qat'iy nazar teng hamda bepul ko'rsatiladi.

Ushbu ikki elementning, shu bilan bir qatorda qonunchilikda belgilangan kafolatlangan tibbiy yordamni bepul asosda ko'rsatilishining O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilab berilishi barcha ijtimoiy qatlam vakillarining sog'liqqa bo'lgan huquqini ta'minlashga xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida sog'lom millatni shakllantirishning bosh omili sanaladi.

2023-yil qabul qilingan Konstitusiyaga davlat sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlarini rivojlantirish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash, tibbiy sug'urtaning turli shakllarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni muhofaza qilish, xususan, Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini himoya qilish va tiklash, uni ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish bo'yicha zarur choralarni ko'rishiga oid normalarning kiritilishi uning davlat oldida turgan vazifasi sifatida naqadar dolzarbligini belgilab beradi.

Ma'lumot uchun:  Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida respublikamizda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 858 ta yangi korxonalar tashkil etilgan [5].

R. Magnusson o'zining "Advancing the right to health: the vital role of law" nomli kitobida qayd etilishisha davlatlar insonning sog'liqni saqlash huquqini ta'minlash uchun eng avvalo, quyidagilar fundamental vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi zarur: zamonaviy boshqaruv va liderlik (bu element o'z ichiga to'g'ri strategik rivojlantirish, sohadagi Qonunchilik, boshqaruv tuzilmalarini qamrab oladi); sog'liqni saqlash sohasidagi axborot va uni shaffofligi (jamiyatda sog'liqni saqlash sohasidagi axborotlarning ochiqligi, ularning tahlili, ularni to'rlash va xalqqa e'lon qilib borish tizimi); sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish (samarali moliyaviy ta'minot tizimi, aholining barcha qatlamlariga mos keluvchi tibbiy xizmatlar uchun narx siyosati,

moliyaviy to'siqlarni mavjud emasligi); sog'liqni saqlash sohasida kadrlar siyosati (amaliy va nazariy tajribaga ega kadrlar, ularni tanlash va o'qitish, qayta malakasini oshirish, rag'batlantirish tizimi); tibbiy xizmatlarni ko'rsatishning hammabopligi (tibbiy xizmat sifati, uning ixtisoslashuvi, kasalliklarni oldini olish va jamoat sog'lig'ini saqlash tizimini boshqarish); dori va texnologik vositalar bilan ta'minlanganlik (dori vositalarini yaratish texnologiyasi, zamonaviy tibbiy uskunalarni ishlab chiqarish yoki ta'minoti, vaksina va nanotexnologiyalarni mavjudligi). R.Magnusson e'tirof etgan davlatning bir qator vazifalari qatorida sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlarini rivojlantirish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash, tibbiy sug'urtaning turli shakllarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabilarni ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda ma'lumki, ekologiyaning buzilishi insonlarning sog'lig'iga ham bevosita yomon ta'sir ko'rsatmoqda, turli xil yangi kasalliklarning kelib chiqishining bosh sababi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumot uchun: 17 may kuni The Lanset Planetary Health jurnalida e'lon qilingan global o'lim va atrof-muhitning ifloslanishiga oid tadqiqotga ko'ra, har yili 9 millionga yaqin odam havo, turroq va suv ifloslanishidan nobud bo'ladi. Tadqiqotchilar ifloslanishni kasallik va erta o'lim bo'yicha dunyodagi eng katta ekologik xavf omili deb atadi. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, har yili dunyoda har oltinchi o'limga shu sabab bo'ladi.

Tadqiqot natijalaridan yana shuni ko'rishimiz mumkinki, ushbu havf yildan yilga kasallikka chalinishning yosharib borishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu sababli ushbu yangi konstitusiyaviy normalar Davlatimiz oldiga asosiy qonun darajasida bir qator majburiyatlarni qo'yish orqali sog'liqni saqlash tizimida mavjud muammolarni xal etishga erishish imkoniyatini beradi.

Uchinchi ming yillikning boshlanishi muhim ikkita tamoyil bilan xarakterlanadi.

Birinchi, hozirgi sivilizasiya global ekologik muammolar (iqlim o'zgarishi, ozon qatlaminin emirilishi, ichimlik suvining ifloslanishi va etishmasligi, o'rmon va tuproqning inqirozi, bioxilma-xillikning qisqarishi, ortiqcha hajmdagi chiqindilarning hosil bo'lishi hamda ularni zararsizlantirish muammolari va boshqalar) bilan to'qnash keldi.

Ikkinchi, dunyoda ekologik vaziyat jadal sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Shuning uchun kechagi mezonlar bilan ertangi istiqbolni baholab bo'lmaydi. Bu kabi muammolar O'zbekiston uchun ham xosdir.

Insonning sog'lig'ini saqlashda tibbiy sug'urtaning o'z roli bor. O'zbekistonda tibbiy sug'urta bilan bog'liq ishlar amalga oshirilayotganligini qayd etib o'tish joiz. Xususan, 2021-yildan boshlab bosqichma-bosqich majburiy tibbiy sug'urta joriy etilishi nazarda tutilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Ppezidentining 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, 2021-yildan boshlab bosqichma-bosqich majburiy tibbiy sug'urta joriy etilishi nazarda tutilgan. Tibbiy sug'urta moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish hisoblanib, bugungi kunda milliy sog'liqni saqlash tizimiga joriy etilgan sug'urta tizimida aholi pul to'lamaydi, sug'urta doirasida har bir fuqaroning salomatligini kafolatlangan paket asosida davlat budjeti mablag'i hisobidan sug'urta qilinadi. Bu bilan sohaga ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, kasalliklarni erta aniqlash, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati va ko'lamini yanada oshirishga erishiladi.

Ushbu tizimning yo'lga qo'yilishi sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'lar doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ulushi oshishiga, aholining ijtimoiy zaif toifalari vakillarini sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga, tibbiy xizmatlar bozorida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga, aholining tibbiy yordam uchun to'g'ridan to'g'ri to'lovlari darajasini kamaytirishga xizmat qiladi [6]. Shu maqsadda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4890-sonli qaroriga muvofiq davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tashkil qilinib, davlat tibbiy sug'urtasini bosqichma-bosqich joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Konstitusiyaning 48-moddasiga binoan, davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Qayd etish lozimki, Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, davolash inson salomatligini ta'minlashning 10 foiz omili, xolos, sog'lom turmush tarzi esa 55 foizni tashkil etadi. COVID-19 pandemiyasi ham noto'g'ri turmush tarzi og'ir oqibatlariga olib kelishini ko'rsatdi [7]. Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham aholining sog'lig'i, jismonan salomatligi, sog'lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko'rsatdi.

COVID-19 koronavirus infeksiyasi avvalo yurak-qon tomir va nafas olish yo'llari hamda semizlik (ortiqcha vazn) kasalligiga chalingan fuqarolarimizning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, bugungi pandemiya oramizdan ko'plab fuqarolarimizni bevaqt dunyodan ko'z yumishiga sabab bo'ldi [8].

Sog'lom turmush tarzi to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan o'zini tiyish, ruhiy osoyishtalik va asabiy muvozanatni saqlash, gigienaga rioya qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

Sog'lom ovqatlanish – urf-odat, an'anani hisobga olib turli aholi guruhlarining ratsional ovqatlanishida ilmiy asoslangan, ehtiyojni qondirishni ta'minlaydigan, kasalliklar profilaktikasi va sog'liqni mustahkamlashga yordam beradigan, turli ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishga asoslangan ovqatlanishdir. Ma'lumki, noto'g'ri ovqatlanish erta o'lim havfini oshiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, jismoniy faollik hamda ovqatlanish me'yor va qoidalariga amal qilmaslik, tarkibida tuz, qand, yog' miqdori ko'p bo'lgan taom va shirinliklarni me'yoridan ortiq iste'mol qilish, shuningdek etarli darajada vitamin va minerallar iste'mol qilmaslik oqibatida yoshlarda ratsional o'sish va aqliy rivojlanishda ortda qolish, kattalarda esa yurak qon-tomir, endokrin, xavfli o'sma kabi insonning erta o'limiga olib keluvchi qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi [9]. Prezidentning "Aholining sog'lom ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq sog'lom ovqatlanish dasturining indikatorlari belgilandi. Unga ko'ra 2025-yilga kelib aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini 75,1 yoshdan 76,4 yoshgacha oshirish rejalashtirilgan: erkaklar uchun – 72,8 yoshdan 74,1 yoshgacha, ayollar uchun – 77,4 yoshdan 78,7 yoshgacha. Bundan tashqari, kelgusi besh yil ichida semizligi bo'lgan aholi ulushining o'sishini 23,5% darajasida to'xtatish rejalashtirilgan. Xususan, hukumat 5 yoshgacha bo'lgan ortiqcha vaznli bolalar ulushini 4,6 dan 4 foizgacha kamaytirishni va qariyalarni 56,4 foizga to'xtatish niyatida [10].

Sog'lom turmush tarzini olib borish jismoniy faollik bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga ko'ra, jismoniy tarbiya – madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig'indisidan iborat bo'lgan qismidir.

Ushbu qonunga ko'ra davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni qo'llab-quvvaydi, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari tomonidan moddiy-texnika va axborot resurslaridan, shuningdek ilmiy-tadqiqotga oid va texnik ishlanmalar hamda texnologiyalardan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi, sport klublari va maktablari, sport-ta'lim muassasalari, shu jumladan ixtisoslashtirilgan sport-ta'lim muassasalari, sport-sog'lomlashtirish oromgohlari, tibbiy-jismoniy tarbiya dispanserlari faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, shuningdek jismoniy tarbiya va sport vositalaridan aholining, shu jumladan ayollar va yoshlarning, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lig'ini mustahkamlash maqsadida foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi va hokazo.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir necha normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5282-son qarori, 2022-yil 11 apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-201-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi "Mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish va sport maydonchalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-245-son qarorlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-sonli Farmoni bilan har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishga shart-sharoitlar yaratish; ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o'rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish; aholi turli guruhlarining sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste'mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishdan voz kechish yo'li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni kamaytirish; aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini keng targ'ib qilish, shu jumladan, tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish; sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalari darajasida sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ'ib qilish; maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim

muassasalarida, korxonalar, tashkilot va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish kabilar sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi [11].

Bugungi kunda yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 2021-yil dan boshlab dasturlar to'liq bajarilgunga qadar har yili 104 milliard so'mdan, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb qilishga qaratilgan dasturlarni moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan 2021-yil dan boshlab dasturlar to'liq bajarilgunga qadar har yili 10 milliard so'mdan mablag'lar ajratib kelinmoqda. Aholi uchun qulay bo'lgan ko'chalarda piyoda va velosipedda yurish uchun "Salomatlik yo'laklari" tashkil qilinmoqda, aholi soni va uy-joylarning joylashuvini inobatga olgan holda, shuningdek, tashkilot va idoralarning tegishli hududlarida velosiped turar joylari va zamonaviy sport (shu jumladan, Workout) maydonchalari tashkil etilmoqda, sport majmualari qurilmoqda, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bor shaxslar, ayollar o'rtasida turli sport tadbirlari tashkil qilinmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 52 417 ta sport inshooti mavjud bo'lib, 2018-yilga nisbatan ularning soni 1,0 barobarga oshgan [12].

Bu amalga oshirilayotgan ishlar albatta birinchi navbatda inson salomatligini saqlash bilan bog'liq, zero 2019-yilda tarqalgan Covid 19 kasalligi kasallikning chegara bilmaligi, hamda davlatning siyosati, iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotini ham izdan chiqarishga qodir ekanligini ko'rsatib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Устав В. О. З. ВОЗ. Основные документы. – 2005.
2. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights, opened for signature 16 December 1966, 993 UNTS 3 (entered into force 3 January 1976)
3. Toebes B. et al. (ed.). The right to health: a multi-country study of law, policy and practice. – Springer, 2014.
4. Панова Л. В. Доступность медицинской помощи: Россия в эвпопейском контексте //Журнал исследований
5. https://t.me/statistika_rasmiy
6. <https://daryo.uz/k/2023/06/24/tibbiy-sugurta-nima-beradi>
7. <https://www.who.int/ru/emergencies/diseases/novel-coronavirus-2019?gclid>
8. <https://lex.uz/docs/-5077667>
9. <https://lex.uz/docs/-5090241>
10. staff.tiame.uz/storage/users/153/presentations/2PMpJYbhw5e20cXB1CVHQcDZsY79lNYg2isGcQWx.pdf
11. <https://lex.uz/docs/-5077667>
12. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/28271-o-zbekistondagi-sport-inshootlari-soni>
13. Анварова, Д. (2023). Хотин-қизлар ижтимоий ҳуқуқларини таъминлашнинг конституциявий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Общество и инновации, 4(5), 52-60.
14. Анварова, Д. (2023). Гендер аудит–давлат ташкилотларида хотин-қизлар ижтимоий ҳуқуқларини таъминлаш воситаси. Общество и инновации, 4(8/S), 162-166.

15. Anvarova, D. A. (2023). Xotin-qizlar ijtimoiy huquqlarini ta'minlashning tashkiliy huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI, 2(2), 17-24.

16. Jasurbek, I. L. H. O. M. B. E. K. O. V. (2022). Development tendencies of the right to receive information in the virtual space. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 17-22.

17. Ilkhombekov, J. (2022). The role and role of the media in the information distribution process. академические исследования в современной науке, 1(17), 80-84.

18. Ilxombekov, J. I. O'. (2022). O'zbekiston respublikasi qonunlarida ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari. Scientific progress, 3(4), 1068-1074.

19. Ilhombekov Jasurbek. Comparative Legal Analysis of Reforms Conducted for the Development of the Information Sector in the New Uzbekistan. AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies. Volume 02, Issue 01, 2024 ISSN (E):2993-2157

20. Jasurbek, I. (2024, February). Internet activity coordination organizations. In E Conference World (No. 4, pp. 158-166).

21. Aslonova Laylo. (2023). Comparative analysis of acts on permissible restrictions on the freedom of science. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 5(08), 19–27. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume05Issue08-05>

22. Aslonova, L. (2023). ilmiy ijod erkinligining kelib chiqish tarixi. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(36). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1588>

23. Караходжаева О. Отражение конституционно-правовых реформ в деятельности парламента республики Узбекистан. <https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences>

24. Караходжаева О. (2022). Контрольные функции в деятельности парламента. Евразийский журнал академических исследований, 2(12), 160–166. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/10101>

25. Правовая сущность и признаки конституционных обязанностей. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2017-7-7-7>

Караходжаева Окилахон Руфатовна кандидат юридических наук.

26. Jakhongir, K. (2023). Legal guarantees of the use of the internet by individuals. World Bulletin of Management and Law, 18, 33-37.

27. Jaxongir, Q., & Zokirjon, O. G. L. (2022). Mahalliy ijro hokimiyat organlari boshqaruv tizimini isloh etish masalalari. Ta'lim fidoyilari, 13, 51-54.

28. Сафарова, Х. . (2023). Халқаро ҳуқуқда инсонларнинг соғлиғини сақлаш ва малакали тиббий хизматдан фойдаланиш ҳуқуқи. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(8), 171–179. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/19928>

29. Сафарова Хулкар (2020). Совершенствование конституционно-правовых гарантий обеспечения права граждан на квалифицированное медицинское обслуживание в Узбекистане. Review of law sciences, 5 (Спецвыпуск), 34-43. doi: 10.24412/2181-919X-2020-34-43

30. Сулаймонова Г. Т. и др. Характеристика изменений слизистой оболочки и микрофлоры полости рта при коронавирусной инфекции //Science and education: problems and innovations. – 2021. – С. 154-158.

31. Бокиев Ж. Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган шахсларнинг олий таълим олиш ҳуқуқини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/5.

32. Юлдашев, Азизжон Нормирзаевич. "Общественные Объединения Как Элементы Политической Системы Гражданского Общества." Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities 18 (2023): 58-62.

33. Беков И. Фракция политической партии–важный субъект законодательного процесса //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 6/S. – С. 292-301.

34. Беков И. Давлат ҳокимияти вакиллик органи фаолиятида сиёсий партияларнинг ўрнини такомиллаштиришга оид илмий-назарий ва ҳуқуқий таҳлил //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 2/S. – С. 229-235.